

**KIBER MAKON, KIBER TERRORIZM, KIBER
ZO‘RAVONLIK(CYBERBULLYING) TUSHUNCHALARINING
MOHIYATI**

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Misliddinova Shaxlo

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

maktagacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

***Annotatsiya** Ushbu maqolada kiber makon haqida, kiber zo'ravonlikdan saqlanish, va kiber terrorizmga qarshi kurashish hamda butun dunyoda global muammo bo'lmish kiber terrorizmning yuzaga chiqishi haqida yoritilgan. Maqolada kibermakon, kiberjinoyat tushunchalari, uning mohiyati haqida yoritilgan. Ushbu maqolada kelajakda sodir etilishi mumkin bo'lgan hamda hozirgi kunda sodir etilib kelayotgan kiber jinoyatlarni oldini olish va ularga barham berishda kiber xavfsizlikning o'rni yoritib berildi.*

***Kalit so'z:** axborot texnologiyalari, kompyuter, telefon, kiber xujum, kiber maydon, kiber terrorizm, internet, ta'lim- tarbiya, biznes.*

Bilamizki, bugungi zamonaviy ilm -fan asrida, ya'ni kompyuter va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yashayapmiz. Ma'lumki, hozirgi kunda hayotimizni internetsiz, axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Ma'lumki, insoniyat hozirgi kunda har qanday ishda ham, o'qishda ham, biznesda ham, ta'lim-tarbiya jarayonida ham, tibbiyotda va shu kab har qanday sohalarda ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanyapdi. Biz yashab turgan, rivojlanayotgan asrda axborot texnologiyalari kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. Shu o'rinda insonlarning ehtiyojlariga qarab ushbu zamonaviy texnologiyalar, kompyuter mobil telefon apparatlarining har xil turlari ishlab chiqarilmoqda. Bunday holat albatta quvonarlidir. Chunki shu va shu kabi

qurilmalar odamlarni og'irini yengil qilishi bilan foydalidir. Lekin xalqimizda "asalning ham ozi shirin" -degan maqol hamma narsani me'yorida bo'lgani yaxshi degan ma'noda bejiz aytilmagan. Chindan ham biz foydalanayotgan texnologiyalarning bir tomondan foydasi bo'lsa bir tomondan zarari ham yo'q emas. Hozirgi zamonimizda butun dunyoda aynan biz foydasi haqida so'zlayotgan aynan axborot texnologiyalarini insonlar o'z maqsadlari va nafsi yo'lida noto'g'ri foydalanishlari oqibatida, butun dunyoda global va dolzarb muammo bo'lib kelayotgan kiber hujumlarning avj olishi va ushbu muammoning butun yer yuzini qamrab olgani dilimizni xira qiladi albatta. Biz kiber makon haqida va undagi zo'ravonliklar haqida gapirishimizdan oldin kiber so'zining ma'nosi haqida bilib olishimiz maqsadga muvofiqdir. Kiber atama Sharqiy Yevropa jargonida ayyor, ayyor yoki ko'cha aqlli odamni tasvirlash uchun paydo bo'lgan. "Kiber" so'zi ruscha "cyber" ("kiber" deb talaffuz qilinadi) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning ildizi jinoyat olami va kibermadaniyatga ega. Bugungi kunda global axborot maydonida kiber makon bilan bog'liq yangidan-yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Shu bois virtual olamdagi hujumlardan himoyalaniish masalasi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. Ichki ishlar vazirligi akademiyasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya kiber makonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashishning dolzarb muammolariga bag'ishlandi. Anjumanda qator vazirlik, idora va tashkilotlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlaridan mutaxassislar, axborot texnologiyalari bo'yicha ekspertlar, shuningdek ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi. Anjuman avvalida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi boshlig'i, polkovnik Rustam Xatamov so'z olib, axborot xavfsizligini ta'minlash va kiber jinoyatlarga qarshi kurashishda yuzaga kelayotgan muammolar, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash istiqbollari haqida to'xtaldi. Tahlillarga ko'ra, dunyo bo'ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Luksemburg kabi rivojlangan

davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko'payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan. Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o'zgalarning plastik kartadagi mablag'larini o'zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko'payib bormoqda. Achinarlisi, axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarlik va jinoyatga qo'l urgan shaxslar orasida yoshlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Respublikamizda virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig'idagi o'smir-yoshlar tomonidan sodir qilinmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

– Mamlakatimizda axborot xavfsizligi masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi yondashuvlari amaliyotga joriy qilinmoqda, – dedi IIV Akademiyasi boshlig'i Rustam Xatamov. – Chunki virtual olamdagi jinoyatlarning zarari va xavfi real olamdagi tahdiddan oshib borayotganiga guvoh bo'layapmiz. Bu borada "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi yangi qonunning qabul qilinayotgani sohani davlat tomonidan tartibga solishga, mamlakatimiz axborot tizimlari va tarmoqlariga noqonuniy aralashishning oldini olishga xizmat qiladi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2022

Kibermakon internet tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990-yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982-yil "Burning Chrome" nomli hikoyasida yozadi. Keyinchalik, Gibsonning 1990-yilda yozib tugatgan "Neuromancer" nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu yerda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida subyektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy nuqtai-nazardan

kibermakon deganda internet tarmog‘i orqali bir-biri bilan bog‘langan va bir vaqtning o‘zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma‘lumotlariga o‘ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi. Hozirgi davrda fan, texnika va asosan internet taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi “superkorporatsiya” texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg‘unchilikni sodir etishga bo‘lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda. Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidi to‘g‘risida Aydarbek Tulepov o‘zining “IShID fitnasi” kitobida quyidagi ma‘lumotlarni beradi. IShID o‘zining internet orqali go‘yo Islom yo‘lida “qurbon” bo‘layotgani aks etgan videolavhalari va fotosuratlari “al-Hayot” media studiyasida tayyorlanadi va internetga joylashtiriladi. Terrorchilarning targ‘ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “VKontakte” ijtimoiy tarmoqlarida buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto‘g‘ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo‘lga kiritishdir. Kitobda din niqobi ostidagi “rahnamolar” haqida ham yoziladi. Tabiiyki, tarmoqning barcha foydalanuvchilari kabi ekstremistlar ham turli xil saytlar va forumlarga kirib ko‘radi. Mudom shakllantirilib boriladigan dasturli ta‘minotdan foydalanadi, tarmoqli ta‘minot shu jumladan internet orqali maxfiy muloqot tarqatmoqda. “Al-Qoida”ning birinchi rasmiy sayti 2001-yil 11-sentabr voqealarigacha ham mavjud bo‘lgan. “Al-Qoida” sayti o‘sha vaqtlardagi veb-resurslardan farq qilmagan, uning katta qismini statik (turg‘un, muvozanat holatidagi) tasvirlar va turlicha matn, e‘lonlar (asosan arab tilida), shuningdek, bir nechta qisqa videoroliklar tashkil qilgan. “Al-Qoida”ning rasmiy tashkiloti paydo bo‘lishi, saytda boshqa din niqobidagi “dindor”larning o‘zini oshkor qilishi tezlik bilan kengayib bordi.

Yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlar kabi, ularni qo'llab-quvvatlovchi ko'plab sahifalar, turli xil ko'rinishdagi forum va ijtimoiy tarmoqlar "bolalab" ketdi. Ammo uning din niqobi ostidagi ekstremistlarning diniy mafkurasi bilan tanish bo'lgan har qanday odam, kichik detallar vositasida go'yoki "hamfikr birodarlar"i orasida ekani – bugungi kunning xavfidir. Bu o'z vaqtida "Al-Qoida" tomonidan emas, balki uning tarafdorlari tomonidan yaratilgan edi va o'z navbatida, to'laqonli ijtimoiy tarmoqlarni yaratishda "asqatadigan" zamonaviy texnologiyalar dunyosida bilim darajasini namoyish etib, bu guruhning haqiqiy a'zolari diqqatini o'ziga jalb qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. –Toshkent.Адолат, 2022.
3. Yevropa Kengashi - Kompyuter jinoyatchiligi to'g'risidagi konvensiyasi axboroti (№ 185)(Budapest, 23-noyabr 2001-yil)
4. Jinoyat huquqi maxsus kursi, M.X.Rustamboyev. Toshkent
5. Salayev N.S., Ro'ziyev R.N Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliyva xalqaro standartlar. Monografiya ., – T.: TDYU, 2018, 139-b.
6. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 15-28.
7. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
8. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current

- Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
9. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
10. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
11. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
12. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
13. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.